

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

Buxoro davlat tibbiyot instituti

«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlar bo'yicha prorektor

professor G.J.Jarilkasinova



2024 y.

TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN

MUTAXASSISLIK FANIDAN

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Yo'nalish ixtisosligi: SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Ixtisosligi: NEVROLOGIYA - 14.00.13

Buxoro— 2024

ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi va chet el mamlakatlarida nevrologiya fani, vazifalari, rivojlanish tarixi, O'zbekiston Respublikasida bu muammoning zamonaviy holati, keyingi rivojlanish yo'nalishlari. Nevrologiya predmeti va masalalari, asosiy printsiplari, bo'limlari, nevrologga qo'yiladigan talablar. Nevrologik kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Nevrologiyada ishlatiladigan asbob va uskunalar. Bemorlarni nevrologik muolajalarga tayyorlash va to'g'ri tashhislash. Nevrologik kasalliklarni mahalliy va umumiy davolash usullari. Nevrologik kasalliklarning etiologiyasi, patologiyasi, fiziologiyasi, klassifikatsiyasi, davolash, profilaktikasi, asoratlari haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish. Nevrologiya kasalliklarining sog'liqni saqlash tizimida tutgan o'rni, aholi salomatligini saqlashda nevrologik xizmatning ahamiyati xaqida zamonaviy bilimlarga ega bo'lish. Bosh va orqa miya, analizatorlar, miyaning funksional bloklari, markaziy nerv sistemasining filo- va ontogenezi haqida zamonaviy bilimlarni chuqur bilishi. Bosh va orqa miya shakllanishi va patofiziologik rivojlanishning asosiy bosqichlari haqida zamonaviy bilimlar haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Periferik nerv tizimi shakllanishi va patofiziologik rivojlanishning asosiy bosqichlari xaqida zamonaviy bilimlarga ega bo'lish. Nevrologik kasalliklarini bilish jarayonlari ularni turlari, keltirib chiqaruvchi sabablari haqida zamonaviy bilimlarni bilish. Bemorlarni klinik-nevrologik tekshirish, anamnez yig'ishni, kuzatishni yuqori darajada o'tkazish. Nevrologiyada funksional diagnostika usullari, ya'ni EKG, EEG, rentgen, MRT, dupleks, UTT va laborator tekshiruvlar haqidagi bilimlarni shakllantirish, takomillashtirish va uning xulosalarini mustaqil ravishda interpretatsiya qilish. Nevrologik testlardan foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olish. Tekshiruv hajmini aniqlash bilan dastlabki tashxisni shakllantirish, davolash usullari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish. Nevrologning kundalik amaliyotida ishlatiluvchi zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilish malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak. Mumkin bo'lgan xato va asoratlari haqida bilishi va ulardan foydalana olish.

Tuzuvchilar:

Xodjiyeva Dilbar Tadjiyevna	BUXDTI nevrologiya kafedrası mudiri, prof.
Axrorova Shaxlo Botirovna	BUXDTI nevrologiya kafedrası dotsenti., DsC

Taqrizchilar:

Saidov Akbar Axadovich	BUXDTI ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası professori., DSc.
Sokolovich Nataliya Aleksandrovna	Sankt-Peterburg Davlat Universiteti, stomatologiya kafedrası mudiri., professor

Tasdiqlangan

Dastur DKTFning 2024-yil “ _____ ” _____ dan _____-son

kengash yig’ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Ma’lumki, chuqur islohatlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o’tish, birinchi navbatda kadrlar potentsialiga, ularning kasb jihatdan tayyorligiga bog’liqligi, ikkinchidan, mavjud ilm-fan taraqqiyoti, uni zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta’minlanganligi orqali aniqlanadi. Shu bois, xalqimizning aqliy boyliklarini, jahon fani va

madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'ziga singdirib oladigan yangi avlodni kamol toptirish borasida mamlakatimizda talaygina tadbirlar qilindi va qilinmoqda.

Tabiiyki, mustaqil qadam tashlayotgan Respublikamizda tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish, eng avvalo insonda iqtisodiy bilimga va yangi texnologiyani hayotga joriy qilishda kompyuter texnologiyasini o'zlashtirishga talab ehtiyojini uyg'otadi. Shuni nazarda tutib, O'zbekistonda chuqur, keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilishi uchun ta'lim tizimiga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Zero, axborot texnologiyasi bilan yuksalayotgan jamiyatni boshqarish uchun yangidan-yangi mutaxassis kadrlar tayyorlashni hayot taqozo etmoqda. Shu bois, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonun ishlab chiqildi va hayotga tadbiriq etilmoqda. Ushbu qonunlarni amaliyotga tadbiriq etish, o'qitishning yangi usullarini joriy etishni talab etadi.

Darhaqiqat, xozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti xalq xo'jaligining har sohasiga yangidan-yangi texnologiyani, jumladan yangi axborot texnologiyalarini jalb qilishni taqozo etmoqda. Bu muammolarni hal qilishda turli kasb egalari, o'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat, tashabbuskor yoshlargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini qiynal olmay bosib o'ta oladi. Shuning uchun ham endigi eng dolzarb vazifamiz–yangi texnologi jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangidan-yangi qirralarini mukammal ochib berishdir.

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 dekabrdaagi “Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 319 - son Qarori, Sog'liqni Saqlash vazirligining 2012-yil 12-iyuldaagi 202, 204 qarorlariga asoslangan.

O'quv dasturi mutaxassislik bo'yicha umumiy amaliyot shifokor-nevrologlarni qayta tayyorlash uchun mo'ljallangan.

O'quv dastur “Nevrologiya” ixtisosligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish, ularning ilg'or davolash tajribalarini o'rganishlari hamda

zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

O'quv dastur mazmunida "Nevrologiya ixtisosligining barcha yo'nalishdagi masalalarini o'rganish, global internet tarmog'idan foydalangan holda davolash jarayoniga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, shifokorning professional mahoratni oshirish, O'zbekiston olimlarini fan yutuqlarini bilish, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini aniqlash, davolash tadbirlarini o'tkazishning samarali usullaridan foydalanishga o'rgatish asosiy vazifalar etib belgilangan.

O'quv dastur doirasida berilayotgan mavzular vrachlarning shifokor kadrlarga qo'yiladigan davlat talablarini, zamonaviy innovatsion texnologiyalari va ularning turlarini bilishlari amalda qo'llay olishlari, axborot texnologiyalaridan davolash va profilaktika jarayonida samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Zamonaviy nevrologiya o'zining asoslarida quydagilarga tayanadi:

- umumiy fundamental ilmlarga;
- tashxis nazariyasini ishlab chiqishga;
- organizmning normal va patologik fiziologiyasi qonunlariga;
- kasallikning klinik namoyon bo'lishi va uni davolash rejasiga;
- davolash uslubiga zamonaviy yondashishga;
- kasallikning oldini olish choralari ishlab chiqishga.

Vrach-nevrologni birlamchi va qo'shimcha ixtisoslashtirish va malaka oshirish kurslarida o'qishni asosiy vazifalaridan biri bo'lib ijodiy yondoshish, o'zlashtirganini mantiqiy tushunib olish, fikrlash, umumiy patogenetik jarayoniga bog'lab, davolash rejasini asoslash va bemorni kuzatish jarayonini shakllantira olishi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kasalliklarni davolash va profilaktika tadbirlarini ta'minlaydigan amaliy ko'nikmalarni o'rganish vazifalari qo'yilgan.

"Nevrologiya" mutaxassisligi bo'yicha o'zlashtirish, amaliyotda poliklinika sharoitida o'tkaziladi. Talabgorlar qo'shimcha tekshiruv natijalarini mustaqil talqin qilishni, nevrologik kasalliklarni tashxislash va davolash muolajalarini bajarishni,

birlamchi tibbiy hujjatlarni to'ldirishni, bemorlarni ko'rishni amaliy ko'nikmalar asosida amalga oshirishni bajarishlari shart.

Ushbu o'quv dastur tayanch doktoranturaga kirish sinovlari uchun o'qiydigan umumiy amaliyot shifokor-nevrologlar uchun mo'ljallangan.

DASTUR MAQSADI

Dasturni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad – bu “Nevrologiya” ixtisosligi bo'yicha zamon talablariga javob beradigan amaliy bilim va qo'l hunari ko'nikmalarini o'zlashtirish, asosiy nevrologik kasalliklar va ularning asoratlarini kelib chiqish sabablari (etiologiyasi), rivojlanish mexanizmlari (patogenez), klinikasi, tashxis va qiyosiy tashxislari, davolash usullari hamda ularni oldini olish (profilaktika) chora-tadbirlarini o'rganish. Nevrologiyaning asosiy bo'limlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish, O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimi strukturasi belgilangan nevrologik yordamini ko'rsata oladigan umumiy amaliyot shifokor –nevrologlarni ilmiy jihatdan mukammal tayyorlashdir.

VAZIFALAR

- “Nevrologiya” moduli talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va asab kasalliklariga uslubiy yondashuv parda dunyo qarashini shakllantirish,
- umumiy nevrologiya asoslari,
- eng ko'p tarqalgan nevrologik kasalliklarni va nevrologik sindromlarni etiologiyasi, patogenezini o'rgatish, nevrologik statusni tekshirish,
- meningial belgilarni va tortilish simptomlarni tekshirish,
- o'tkir nevrologik kasalliklarda birinchi yordam ko'rsatish,
- nevrologik bemorlarda topik, nozologik, qiyosiy va sindromologik tashxis qo'yishni o'rgatish.

Fan bo'yicha tayanch doktorantlarning malakasiga qo'yiladigan talablar

- nevrologiya kasalliklarining sog'liqni saqlash tizimida tutgan o'rni, aholi salomatligini saqlashda nevrologik xizmatning ahamiyati haqida zamonaviy bilimlar;

- bosh va orqa miya, analizatorlar, miyaning funksional bloklari, markaziy nerv sistemasining filo- va ontogenezi haqida zamonaviy bilimlar;
- bosh va orqa miya shakllanishi va patofiziologik rivojlanishning asosiy bosqichlari haqida zamonaviy bilimlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;
- periferik nerv tizimi shakllanishi va patofiziologik rivojlanishning asosiy bosqichlari haqida zamonaviy bilimlar;
- nevrologiya kasalliklarini bilish jarayonlari ularni turlari, keltirib chiqaruvchi sabablari haqida zamonaviy bilimlar;
- bemorlarni klinik-nevrologik tekshirish, anamnez yig‘ishni, kuzatishni yuqori darajada o‘tkazish;
- nevrologiyada funksional diagnostika usullari, ya’ni EKG, EEG, rentgen, MRT, dupleks, UTT va laborator tekshiruvlar haqidagi bilimlarni shakllantirish, takomillashtirish va uning xulosalarini mustaqil ravishda interpretatsiya qilish;
- nevrologik testlardan foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- tekshiruv hajmini aniqlash bilan dastlabki tashxisni shakllantirish, davolash usullari tug‘risida ma’lumotga ega bo‘lish;
- nevrologning kundalik amaliyotida ishlatiluvchi zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilish malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak. mumkin bo‘lgan xato va asoratlari xakida bilishi va ulardan foydalana olishi;

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimediya vositalaridan foydalanish, kursantlarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Nevrologiya” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy kontseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zinifaollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni xal etish usullarini ijodiy tarzda qo'llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlantiradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq yetish.

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Nevrologiya sog'liqni saqlash tizimida muhim o'rinni egallaydi. Shu sababli doktorantlarning malakasiga qo'yiladigan talablar qo'yiladi:

- Nevrologiyada qo'llaniladigan mahalliy va umumiy davolash tadbirlarini bilish va amaliyotda bajarish;
- Kerak bo'lgan maxsus tekshiruv usullari (laborator, rentgenologik va hokazo) ni tanlash va bajarish;
- Kasallarni dispanserizatsiya qilish;

- Mutaxassisligi bo'yicha tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishlarni va tahlil etishni kompyuterlashtirish uslublarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Nevrologik kasalliklarni tashxislash;
- Hushdan ketish, kollaps va karaxtlik (shok)da tez yordamni berishni;
- Mahalliy infiltratsion va o'tkazuvchi og'riqsizlantirishlar o'tkazishni bilish
- Nevrolog xonasida yuritiladigan hujjatlarni; nevrologiyada aseptika va antiseptika qoidalarini; JSST tomonidan kiritilgan antiseptik vositalarni qo'llash va ishlatish qoidalarini; nevrologning himoya vosita turlarini, ularga qo'yiladigan talablarni bilish;
- Nevrologiya talabalarga nevrologik statusni tekshirish, meningial belgilarni va tortilish simptomlarni tekshirish, o'tkir nevrologik kasalliklarda birinchi yordam ko'rsatish, nevrologik bemorlarda topik, nozologik, qiyosiy va sindromologik tashxis qo'yish, UASh taktikasini qo'llash ko'nikmalariga va malakalarini tekshirish qonun-qoidalari va funksional tekshirish usullari haqida mukammal bilim berish va ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
- Asab kasalliklarini tekshirishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ham moduldsturining asosiy maqsadlaridan biridir. Bu umumiy amaliyot shifokori ish jarayonida bemorlar bilan to'laqonli muloqotda bo'lib ishlash uchun zamin yaratadi.

Imtihon savollari

1. Nevrologiya tarixi. Nevrologiyaning tibbiy mutaxassislik sifatida shakllanishi. Mahalliy nevrologiyaning asoschilari. Tibbiy deontologiya va etika.
2. Ixtiyoriy harakatlar va ularning buzilishi. Turli darajadagi po'stloq-mushak yo'lining zararlanish belgilari. Markaziy va periferik falajlik.
3. Komada yotgan bemorlarni nazorat qilishning asosiy printsiplari.
4. Insultlarning basis va differentsial davolash.
5. Statistik materiallarni tanlash usullari
6. Markaziy va periferik asab tizimining anatomik va fiziologik xususiyatlari. Neyron, neyrogliya, sinaps - tuzilishi, funksional ahamiyati.

7. Ekstrapiramida tizimi, nozik harakatlarni boshqarishdagi roli. Ekstrapiramida tizim faoliyatini tartibga solishning neyrofiziologik va neyrokimyoviy mexanizmlari, asosiy neurotransmitterlar.
8. Orqa miya qon ta'minoti. Orqa miya qon aylanishining buzilishi.
9. Yuz nervi nevropatiyasi. Klinikasi, diagnostikasi, davolash.
10. Statistik taqsimot. Geometrik rasm.
11. Akson bo'ylab qo'zg'alish mexanizmi. Gematoentsefalik to'siq.
12. Refleks yoyi, tuzilishi va faoliyati. Orqa miya va miya asoslarida reflekslarning joylashuvi, topik tashxis qo'yishdagi ahamiyati.
13. Oraliq, tirsak, bilak, kichik boldir, kata boldir nervlarining nevropatiyasi.
14. Asab tizimining vertebrogen shikastlanishida kuzatiladigan qon tomir-radikulyar va qon tomir- spinal sindromlari. Patogenez, klinikasi, diagnostikasi, davolash.
15. Empirik tarqatish funktsiyasi
16. Meningial sindromlar. Meningeal simptomlarni tekshirish usullari.
17. Miyaning oliy funktsiyalarini tekshirish. (e'tibor, xotira, hisoblash, nutq, praksis, gnozis).
18. Koma va uning oqibatlari. Entsefalopatiyalar va orqa miya funktsiyasining buzilishi.
19. Miyaning qon tomir kasalliklarini tasnifi. O'tkir serebrovaskulyar zararlanish.
20. Statistik taqsimotning tanlangan xususiyatlari.
21. Mushaklar tonusi regulyatsiyasi – orqa miya reflector yoyi, gamma tizimi.
22. Ekstrapiramida tizimi zararlanishi semiotikasi. Ekstrapiramidal harakat buzilishlarining neyropatofiziologiyasi, farmakologik davolash usullari.
23. Bosh miya qon tomir kasalliklari tasnifi. Miyaning qon tomir kasalliklari etiologiyasi.
24. Periferik asab tizimi kasalliklarining tasnifi. Mononevropatiyalar va polinevropatiyalar. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.

25. Tarqatish parametrlarining statistik bahosi.
26. Mushaklar tonusini tartibga solishda segmentusti sohalari faoliyati. Mushaklar tonusini tekshirish.
27. Miyacha va vestibulyar tizim, anatomiya va fiziologiya. Zararlanish belgilari.
28. Vibratsion kasallik. Kesson kasalligi.
29. Gemorragik insult. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, birinchi yordam, davolash, oldini olish.
30. Ishonch oraliqlari va ishonch ehtimolligi
31. Harakat koordinatsiyasi va uning buzilishi belgilari, klinik tekshirish usullari.
32. Og'riqning markaziy va periferik mexanizmlari. O'tkir va surunkali og'riq. Markaziy og'riq. Yaqqol ifodalangan og'riq. Antinotsitseptik tizim.
33. Tunnel sindromlar, konservativ davo va jarrohlik usulida davolash uchun ko'rsatmalar.
34. Asab tizimining yuqumli kasalliklari. Tasniflash. Diagnostik algoritm.
35. Korrelyatsiya tushunchasi. Korrelyatsiya jadvali.
36. Ataksiya turlari - vestibulyar, frontal, sensitiv. Farmakologik davolash usullari.
37. Sezuvchanlik - sezgi turlari, sezgi o'tkazgich yo'llari. Sezgi buzilishi belgilari.
38. Ensefalit - birlamchi va ikkilamchi. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.
39. Asab tizimi demiyelizatsiyasi bilan kechuvchi kasalliklar. Tarqoq skleroz. Patogenez. Klinika. Diagnostika. Davolash.
40. Chiziqli korrelyatsiya.
41. Orqa miya va periferik asab tizimi. Anatomiya va fiziologiyasi.
42. Paraklinik tekshirish usullari - MRT va KT, elektroneyromiografiya.
43. Yiringli meningit - birlamchi va ikkilamchi. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.

44. Epilepsiya. Epilepsiya va tutqanoq sindromi tasnifi. Klinika. Diagnostika. Davolash.
45. Chiziqli qaramlik parametrlarini eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlash.
46. Orqa miya zararlanish sindromlari, old va orqa ildizchalar zararlanishi, pleksitlar, periferik nervlar zararlanish belgilari. Broun Sekar sindromi. Siringomielitik sindrom.
47. 3,4,6 juft bosh miya nervi va okulomotor tizim. Zararlanish belgilari. Medial tutam. Nigoh regulyatsiyasi.
48. Miya umumiy simptomlari. Bosh og'rig'i, miya qusishi, bosh aylanishi, hush buzilishi, geniralizatsiyalashgan epileptik tutqanoqlar, ko'z tubidagi o'zgarishlar.
49. Surunkali serebrovaskulyar zararlanish. Qon tomir dementsiyasi. Altsgeymer kasalligi bilan differentsial tashhis.
50. Tanlangan nuqtalar va o'rta miqdor usullari bo'yicha chiziqli bog'liqlik parametrlarini aniqlash
- 51.1. Miya ustuni tuzilishi. Uning turli sohalaridan zararlanish belgilari. Alternatsiyalashgan gemisindromlar.
52. 1 juft bosh miya nervi va hidlov tizimi. Tekshirish usullari. Zararlanish belgilari.
53. Asab tizimining vertebrogen zararlanishi. Orqa miya osteoxondrozi klinik tasnifi, etiologiyasi, patogenezi, bosqichlari, klinik va patogenetik shakllari. Neyrovizualizatsiya usullari - spondilografiya, KT, umurtqa pog'onasi MRT.
54. Vegetativ distoniya. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, davolash.
55. Korrelyatsiya koeffitsienti va uning xususiyatlari.
56. 3,4,6 juft bosh miya nervi va okulomotor tizim. Zararlanish belgilari. Medial tutam. Nigoh regulyatsiyasi.
57. Vegetativ asab tizimining segmentusti apparati. Zararlanish belgilari
58. Asab tizimining vertebrogen zararlanishida kuzatiladigan reflektor sindromlar. Patogenez, klinikasi, diagnostikasi, davolash.

59. Poliomyelit. Poliomyelit kasalligining zamonaviy kechish xususiyatlari. Poliomyelitga o'xshash kasalliklar.
60. Styudent usulida taqsimlash.
61. 5 juft bosh miya nervi. Tekshirish usullari. Zararlanish belgilari.
62. Vegetativ asab tizimining tuzilishi va funksiyalari.
63. Asab tizimining vertebrogen zararlanishida kuzatiladigan ildizcha - radikulyar sindromlar. Patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.
64. Seroz meningit - birlamchi va ikkilamchi. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.
65. Tegishli statistika va maqbul baholar
66. 7 juft bosh miya nervi. Turli darajadagi yuz nervining shikastlanishi klinikasi.
67. Vegetativ asab tizimining segmentar apparati. Zararlanish belgilari.
68. Difteriya, botulizm da asab tizimi zararlanishi. Neyrosifilis. NeyroSPID.
69. Nevroz. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.
70. Statistik baholashni o'tkazish.
71. 8 juft bosh miya nervi. Eshitish va vestibulyar tizim. Zararlanish belgilari. Vestibulyar funktsiyani o'rganish uchun otonevrologik usullar.
72. Ong va uning tuzilishi. Koma. Xiralashgan ong darajalarining tasnifi.
73. Migren. Tuqunli bosh og'rig'i. Klinikasi, diagnostikasi, davolash.
74. Landusi-Dejerin miopatiyasi. Klinikasi, diagnostikasi, differentsial tashxisi, tibbiy va genetik jihatlari.
75. Statistik taqsimotning tanlangan xususiyatlari
76. 9.10 juft bosh miya nervi . Turli darajadagi zararlanish belgilari. Bulbar va psevdobulbar sindromlar.
77. Miya o'limi. Patofiziologik mexanizmlar, klinik belgilar. Miya o'limini tashxislash uchun instrumental usullar. (Elektrofiziologik tekshirish usullari - EEG, miya potentsiallarini chaqirish).
78. Mushaklar zo'riqishidagi bosh og'rig'i. Abuz bosh og'rig'i. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.

79. Rivojlanib boruvchi mushak distrofiyalari. Dyushen miopatiyasi, klinikasi, diagnostikasi, differentsial tashxisi, tibbiy-genetik jihatlar.
80. Tarqatish parametrlarining statistik bahosi
81. 12 juft bosh miya nervi. Turli darajadagi zararlanish belgilari.
82. Qovuq funksiyasini ixtiyoriy nazorat qilish fiziologiyasi. Siydik pufagi, siydikni ushlab turish va tuta olmaslik, Siyishning imperativ chaqirig'i. Siydik pufagini instrumental va konservativ davolash.
83. Bekker miopatiyasi, klinikasi, diagnostikasi, differentsial tashxisi, tibbiy va genetik jihatlar.
84. Torsion irsiy distoniya. Klinikasi, diagnostika, prognoz.
85. Ishonch intervallari va ishonch ehtimolligi
86. Orqa miya suyuqligi. Lumbar punktsiya, orqa miya suyuqligini tekshirish.
87. Bosh miyaning qon bilan ta'minlanishi. Qon tomir havzalari zararlanish belgilari.
88. Miasteniya. Patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash.
89. Asab tizimining degenerativ kasalliklari. Siringomiyeliya. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, prognozi.
90. Korrelyatsiya tushunchasi.
91. Vegetativ asab tizimining segmentusti apparati. Zararlanish belgilari
92. Qovuq funksiyasini ixtiyoriy nazorat qilish fiziologiyasi. Siydik pufagi, siydikni ushlab turish va tuta olmaslik, Siyishning imperativ chaqirig'i. Siydik pufagini instrumental va konservativ davolash.
93. Kichik xoreya. Gentington xoreyasi. Klinikasi, diagnostika, prognoz.
94. Ishemik insult. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, birinchi yordam, davolash, oldini olish.
95. Chiziqli korrelyatsiya. Eng past kvadratlar chiziqli parametrlarni aniqlash
96. Gipertenzion sindrom. Dislokatsiya sindromi. Tug'ma, orttirilgan, ochiq va okklyuzion gidrotsefaliya.
97. Orqa miya zararlanish sindromlari. Anatomiya, yo'llar, orqa miya qon bilan ta'minlanishi.

98. Tomsen miotoniyasi klinikasi, diagnostikasi, prognozi.
99. Altsgeymer kasalligi. Klinikasi, diagnostikasi, prognozi.
100. Chiziqli korrelyatsiya. Eng past kvadratlar chiziqli parametrlarni aniqlash

14.00.13 – “Nevrologiya” ixtisosligi bo‘yicha imtihonni baholash mezonlari

№	O‘zlashtirish % hisobida	Baho	O‘zlashtirish % hisobida
1	96-100%	A`lo «5»	Mavzuning nazariy qism savollarga to‘liq va to‘g‘ri javob. Javob dastur me'yoridandan yuqori, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan xolda yuqori sifatda va ijodiy yondoshgan xolda berilgan. Mustaqil ravishda savolni taxlil qiladi va ijodiy fikrlaydi, xulosa qiladi.
2	91-95%	A`lo «5»	Nazariy qismdagi savollarga to‘liq javob. Javob dastur me'yoridandan yuqori, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan xolda yuqori sifatda va ijodiy yondoshgan xolda berilgan. Savolni mustaqil ravishda taxlil qiladi va ijodiy fikrlaydi, xulosa qiladi.
3	86-90%	A`lo «5»	Nazariy qismdagi savollarga to‘liq, lekin 1-2 xatoliklar bilan javob berilgan. Savolni mustaqil ravishda savolni taxlil qiladi.
4	81-85%	Yaxshi «4»	Nazariy qismdagi mavzu bo‘yicha savollarga to‘liq, lekin 2-3 xatoliklar bilan javob berilgan. Javoblarni amaliyotda

			qo'llay oladi, savol mag'zini anglab yetadi, tassavurga ega.
5	76-80%	Yaxshi «4»	Nazariy qismdagi mavzu bo'yicha savollarga noto'liq javob berilgan. Ilmiy izlanuvchi mavzuni biladi, ammo uni to'liq anglab yetmaydi.
6	71-75%	Yaxshi «4»	Nazariy qismdagi mavzu savolga to'g'ri, lekin noto'liq javob berilgan. Ilmiy izlanuvchi mavzuni o'zlashtirgan, lekin savollarga to'liq javob bermaydi.
7	66-70%	Qoniqarli «3»	Nazariy qismdagi qo'yilgan savollarning yarmiga javob berilgan.
8	61-65%	Qoniqarli «3»	Ilmiy izlanuvchi mavzuni o'zlashtirgan. Savollarga noto'liq, ba'zilariga javob beradi.
9	55-60%	Qoniqarli «3»	Nazariy qismdagi ko'yilgan savollarning yarmiga javob berilgan. Savollarga noto'liq, xatoliklar bilan javob beradi. Mavzu asoslanmagan.
10	50-54%	Qoniqarsiz «2»	Nazariy qismdagi qo'yilgan savollarning yarmiga noto'liq javob berilgan. Savollarga noto'liq, asossiz xatoliklar bilan javob beradi. Savolning ba'zi yo'nalishlari xaqida tasavvurga ega, noaniq tushunchaga ega.

Adabiyotlar

Asosiy

1. Asadullaev M.M. Asab kasalliklari propedevtikasi. Darslik. - Tashkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 y.
2. Ibodullaev Z.R. Asab kasalliklari. Darslik. - Toshkent. 2014 y.
3. Ibodullaev Z.R. Asab kasalliklari. Darslik. - Toshkent. 2013 y. (lotin).

4. Sodikova G.K., Madjidova Yo.N., Usmanova D.D. Bolalar nevrologiyasi” (2-nashr). Darslik.
5. Raximbaeva G.S. Asab kasalliklarda xamshiralik ishi. Darslik. -Toshkent. "Voris". 2014 y.
6. Ibodullaev Z.R. Asab kasalliklari. Darslik. -Toshkent. "Fan va texnologiya". 2013y.

Qo‘shimcha

1. Kotova S. V. Sestrinskoe delo v nevrologii. - Moskva. "GEOTAR - Media". 2015g.
2. Madjidov N.M., Gafurov B.G., Madjidova Yo.N. Xususiy nevrologiya. Darslik. - Toshkent. "Sharq". 2012 g.
3. Popelyanskiy V.I. Zabolevaniya perifericheskoy nervnoy sistemû. Monografiya. -Moskva. 2007 g.
4. Xodos X.-B.G. Nervnûe bolezni. Uchebnik. - Moskva. "Meditsinskoe informatsionnoe agentstvo" 2002.

Internet saytlari

1. <http://www.mmascience.ru/mpf/eco/coursetruda>,
2. <http://medprom.ru>,
3. <http://www.libonline.ru>,
4. <http://tradebooks.ckbib.ru>,
5. www.medline.ru,
6. www.rusmedserv.com.
7. <http://drmed.ru/p.php/25/>
8. www.d5.spb.ru